ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

DARVISHOV IBROHIM
Shevalardagi ayrim fonetik-fonologik belgilar
(Janubi-g‘arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida) 7

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Теория концептуальной интеграции как инструмент анализа стилистических приёмов 10

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH,
QO‘CHQORALIYEVA FOTIMA ZOKIRJON QIZI
Til kontakti va so‘z o‘zlashuvi muammolari 13

BEGMATOVA GULCHEHRA
«Qush» semantik komponentli idiomalar tadqiqiga doir kuzatishlar 16

QAZAQOVA NOZIMA ABDULBOQIYEVNA,
HAMRAYEVA YORQINOY NABIJANOVNA
Matn kommunikativ-pragmatik tahlilining asosiy tamoyillari 19

SHAMSUDINOVA IKHBOL
Yordamchi so‘zlar bazasini yaratishda reprezentativlikning ahamiyati 23

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Nutqda paremiyalarga xos milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi 27

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ
Теоретические аспекты соотношения фрейма и концепта 31

KULTAYEVA FAZILAT
Hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati 34

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo dialektal- etnografik leksikasida turli din va madaniyat belgilari 38

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Biznes diskursini sinergetik yondashuvda o‘rganish masalasi 41

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar haqida ba’zi mulohazalar 45

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Тенденции негативной оценки в узбекских и русских пословицах 48

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» asarida qo‘shma fe’llarning berilishi 52

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA
«Qisasi Rabg‘uziy» asarida qo‘llangan frazemalarning lingvostatistik
tahlili va keyingi davr tiliga munosabati 55

XASANOVA KAMILA BAXTIYOROVNA
Etnografik leksika va stereotiplar 58

DARVISHALIYEVA MAHLIYO RUSTAMALI QIZI
Mahmud Koshg‘ariy davri turkiy til va hozirgi Namangan
qipchoq shevalari fonetik xususiyatlari 61

USMONALIYEV SHAHBOZ
O‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi: muammolar va yechimlar 64

MAMIROVA XAYRINISO KOMILJON QIZI
Birinchi tilni o‘zlashtirishga oid nazariyalar 66

XOLMURODOVA SUMBULA NORMO‘MIN QIZI
Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish asoslari va bosqichlari 70

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 72

BOZOROV HAMID XO‘SHMURODOVICH
Folklorda til va madaniyat aloqadorligi (o‘zbek xalq ertaklari misolida) 75

МУНДАРИЖА

АМОНТУРДИЕВА ШОИРА РАВШАНОВНА
Диний услуб фразеологияси 80

OZOTBOYEVA MAXFUZA RAVSHAN QIZI
Komil Avazning “Qo‘nalg‘a” asarida dialektal diskursiv shaxsning lingvopragmatik talqini 86

MUHSINJONOVA SHIRINOY ASLIDDIN QIZI
“Devonu lug‘otit-turk” oziq-ovqat nomlarini qiyosiy o‘rganish uchun asos sifatida..... 90

KO‘CHIMOVA SHAHLO NURIDDIN QIZI
Yuridik matnlarning ekstralingvistik omillari va ularning mazmun shakllanishidagi o‘rni..... 93

ADABIYOTSHUNOSLIK

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ, НАФОСАТ САЙФИДДИНОВА
Икки дарё оқиб ўтди..... 97

SHUKUROV AHAD
Satrlarga sig‘mas so‘zlarim… 103

АМАНЖОЛОВА ДЖЕММА БОЛАТОВНА,
ШАЙМЕРДЕНОВА НУРСУЛУ ЖАМАЛБЕКОВНА
От устной традиции к цифровому архиву: сохранение и популяризация
тюркского эпоса в XXI веке… 105

KARIMOV OBIDJON
Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini..... 109

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Литература как пространство идентичности: диалог русской и узбекской
малой прозы в постсоветскую эпоху… 112

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Проблемы и достижения в переводе «Улисса» на узбекский язык…..... 115

UMAROV BOBOQAND IKROMOVICH,
Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy iztirob va ruhiy yolg‘izlik..... 119

KARJAVUV G‘OLIB AZAMAT O‘G‘LI
Muhammad Sharif Gulxaniyning masalchilikdagi badiiy mahorati… 122

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali akslanishi…..... 126

BERDIBOYEV ULUG‘BEK SOATBOY O‘G‘LI
Tipologik talqin: adabiy tafakkur, poetik idrok, matn stlistikasi munosabati… 129

DUYSENBAYEV OLIMJON ISMAILOVICH
Romanda syujet va xarakter dinamikasi… 131

FERUZA SULTONQULOVA
Usmon Azim she’riyatida Boysun yetakchi motiv sifatida… 134

KIRGIZOVA GULNOZA MAMADALIYEVNA
Iqbol Mirzo she’riyatida fikr va tuyg‘u uyg‘unligi… 137

QAHHAROVA DILAFRO‘Z ABDUG‘AFFOROVNA
Zamonaviy o‘zbek qissachiligi: xalq an’analari va yangi badiiy shakllar… 140

MAMATQULOV BOTIR
Nazar Eshonqul hikoyalarida shaxs fojiasi talqini..... 143

ABDUNAZAROV O‘TKIR
Bolalar adabiyotida ijodiy izlanishlar (Nosir Fozilov asarlari misolida) 149

TA’LIM

NODIRA JALOLOVA
Kommunikatsion menejment tushunchasi va uning funksiyalari 155

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

USMON AZIM SHE'RIYATIDA BOYSUN YETAKCHI MOTIV SIFATIDA

Feruza Sultonqulova
Filologiya fanari bo'yicha falsafa doktori PhD
Termiz davlat universiteti

XX asr o'zbek adabiyotini she'riy, nasriy va dramatik asarlar bilan boyitgan, milliy she'riyatimizga xalqona, baxshiyona ruhni olib kirgan iste'dodli shoir Usmon Azim nomini bilmagan, uning she'rlari sevib o'qilmagan, mashhur hofizlarimiz ijrosidagi "Yomg'ir yog'di mayda-maydalab", "Karvon ko'rdim tuyalari bo'zlab borar", "Bog' qo'ynida ikki daraxt…" kabi qo'shiqlar yangramagan xonadon bo'lmasa kerak?! Ayniqsa, shoirning o'zi tug'ilib o'sgan shahri Boysun haqidagi she'rlari uning haqiqiy muxlislari, balki adabiy davra ahli qalbida Vatan suratini ajib tarovatli so'z bo'yoqlarida tanitdi. Taniqli boysunlik hofiz Xoliq Xursandov tomonidan ijro etilgan "Maysalar, tovonim sizni sog'inar…" she'ri maroq bilan eshitiladigan qo'shiqqa aylandi. Shoirning O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayevga bag'ishlangan "Boysun haqida g'amgin ballada yoki qaytmaydigan xotiralar haqida she'r", Erkin A'zamga bag'ishlangan "Dasht haqida ballada" kabi bag'ishlov she'rlari esa adabiyotimizda o'ziga xos alohida hodisa bo'ldi. Umuman, uning she'rlarida tug'ilgan shahri Boysunning betakror va go'zal tabiat manzaralari, unda kechirgan bolalik va o'smirlik damlarining shirin xotiralari va bu yurt dovrug'ini dunyoga taratgan "Alpomish" dostoni, mard va oliyjanob baxshilar obrazi aks etadi. Shoir she'riyatining manbalari ham u tug'ilgan vohaning tabiati va bu yurt insonlarining durdona xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. "...Biz, Erkin A'zam va men Toshkentga kelganda, ijodiy ziyolilar orasida "Boysun" so'zi keng tarqalgani va u odamlarda ijobiy bir hayajon qo'zg'ashini sezdik, deb yozadi shoir o'zbek adabiyotini yuksaltirgan taniqli yozuvchi Sh.Xolmirzayev haqidagi xotiralarida. Shukur akaga Boysun va Surxon shu qadar singib ketgan ediki, u qayerda bo'lmasin, kimlar bilan, qaysi davrada o'tirmasin – Boysunni va Surxonni eslamasdan turolmasdi. Tug'ilgan yurti uning iftixori va ilhomining manbasi edi. Mayda odamning yurti mayda ko'rinadi, afsona odamlarning tug'ilgan maskani esa afsonaga aylanadi"[1]. Shoirning adibga bergan bunday e'tirofi zamirida yozuvchi ijodiy porterti bilan birga, tug'ilgan yurtiga mehr-muhbbati, bizningcha, shoir ijodining o'ziga ham xosdir.

Biz shoirning "Baxshiyona" turkumi bilan birga uning boshqa asarlarida "Alpomish" dostonida tilga olingan Boysun joy nomi folklor an'analariga mos tarzda kuylaganiga guvoh bo'ldik.

Shunday shaharlar borki, ular dunyo tamaddunining beshigi sanaladi. Bu shaharlar insoniyat taraqqiyot bosqichini ko'rsatib turadi. Ana shunday shaharlardan biri – Boysundir. Boysun – qadim zamonlardanoq ilm-fan, madaniyat va savdo aloqalari uchun qulay bo'lib, o'ziga xos tarzda yetakchi markazlar sirasiga kirgan. Bu shaharning qadimiy manzilgohlari, tabiati, madaniyati, etnografiyasi, shu bilan birga durdona xalq og'zaki ijodi namunalari butun dunyoga mashhur. Yuksak va viqorli Boysuntog' tizmasi etaklaridagi so'lim go'shalarda tili, urf odatlari, moddiy va ma'naviy boyliklari, qadriyatlarini asrlar osha saqlab kelayotgan qo'ngirot urug'i avlodlari va tojik elatlari yashab kelmoqda. Bu o'lkaning tarixi jahon olimlarining tadqiqotlariga va ilm fan rivojlanishida munosib hissa bo'lgani barchaga ma'lum. Nufuzli xalqaro tashkilot – YUNESKO tomonidan 2001-yilda Boysun "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy merosi durdonalari" ro'yxatiga kirgan shahar sifatida e'lon qilindi. O'tgan asrdayoq Boysun xalq ijodiyoti, folklor namunalari, "Shalola" va "Boysun" kabi folklor-etnografik jamoasi, ularning betakror, sermazmun, serjilo, o'ynoqi repertuarlari orqali o'z mamlakatidan tashqari, dunyo aholisi orasida ham tanilib shuhrat qozonadi. Bu folklor jamoalarining o'ziga xos repertuari, ijro usuli, kiyim-kechagiyu bezaklari – bularning barchasida folklor badiiyati namoyon bo'ladi.

Ko'plab shoirlar ijodida o'zi tug'ilib o'sgan yurti yoki shahri yashaydi. Usmon Azimda ham shunday. Ammo boshqalardan farqi shundaki, Usmon Azim she'riyatida Boysun shunchaki tilga olinmaydi. Boysun – Ona yurt timsoli. Shoirning yuragi vatan tuyg'usi, vatan muhabbati bilan yonadi. Tabiat va

[1] Усмон Азим. Сўнгсўзлар. – Тошкент: Илм зиё-заковат, 2020. – Б.397-398.

jamiyatdagi yilt etgan hodisada Vatan suvratini ko‘radi. Agar har bir shoir ijodida yetakchilik qiladigan alohida mavzular bo‘lsa, shubhasiz, uning ijodida Vatan mavzusi Boysun nomiga singib ketgan. Shu jihatdan olib qaraganda, Usmon Azim ijodida Boysun motiv obrazdir.

Shoirning Vatanni tanitishga, uni ilk bor his etishga da’vat etuvchi she’rlari nafaqat yuragingizga, balki uning tub-tubigacha yeti boradi. “Baxshiyona”da Alpomish va Oybarchin aytishuvida ijodkor buni nihoyatda go‘zal bir tarzda Alpomish tilidan keltiradi.

Olamda ko‘p erur ibora,
Bir so‘z bor og‘riqdan iborat.
U – Vatan! Barchinim, u – Vatan!
Bolamga, “Vatan” de ilk bora.

Oy chiqsa bo‘ladi oydin de,
Lochinday qanoting yoygin, de.
Barchinim, suyganda suyib ayt,
Tug‘ilgan tuprog‘ing Boysin, de[1].

“Baxshiyona” turkumida bir necha o‘rinlarda yuqoridagi kabi Boysun nomi tilga olinadi. Lirik qahramon Elbek baxshi turkumga xos tarzda voqealar rivojining shiddatli va qiziqarli, shu bilan g‘oyaviy xususiyatlarni to‘la yoritish asnosida Boysun nomiga murojaat etadi: “…*Boysundan Qalmoqqa ketarda Boysaribiyning qavmida Bovir baxshi degan bir shoir bor ekan. Shu shoir keta ketguncha, Qalmoqqa yetguncha ayriliqdan aytib, barchani yig‘latib borgan ekan. Bovur baxshining shu aytganidan xudo mening ko‘nglimga solgani mana bu qo‘shiqdir*:

Ota-bobom yayragan,
Otlarini boylagan,
Toshlarini ko‘rsayam
Dil bulbulday sayragan
Boysunimdan ayrildim[2].

Darhaqiqat, Ona yurt tushunchasi har bir insonning o‘z kindik qoni tomgan muqaddas yurt. “Alpomish” dostonida ham yurtga muhabbat, ona tuproqni ardoqlash kabi ezgu fazilatlar ulug‘lanadi. Doston qahramonlari qalbu ongida Vatanning muqaddasligi, yurt ozodligi, millatning shakllanishida til, qadriyat, an’analar turishi, elning tinch-totuvligi va farovonligi yetakchi o‘rinda turadi. Shu bois “Baxshiyona”da doston qahramonlari Qalmoq yurtiga ketib, zindonda yetti yil yotgan Alpomishni yo‘qlaganda Boysunni ham tilga oladi. “*Qalmoqda chohda yotgan Alpomishni enasi Kuntug‘mishbeka shunday chorlagan ekan:*

Ko‘z oldimdan ketmaydi,
“Elim” degan kelbating.
Endi seni chaqirar
Boysun-Qo‘ng‘irot elating[3].

Yuqoridagi misralardagi kabi quyidagi satrlarda ham mana shu ruh chuqur singdiriladi:

“Oybarchinning Alpomish bilan qurgan g‘oyibona suhbati bu turur*:*

Boysun” degan damingda
Tilingni eslagaysan[4]”.

U.Azim she’rlarida Boysun – Alpomish – Barchin – Yodgor – Boychibor kabi obrazlar nomi bir-biri bilan mushtarak qo‘llaniladi. “Boysun bilan tanishtirish” she’rida doston qahramonlari nomi go‘yo Boysunning tashrif qog‘ozidek bitilgan:

Bu dashtlarda bo‘zlab-bo‘zlab Barchin kezgan,
Alpomishning tirikligin shu dasht sezgan.
Vujudlari qirmiz rangda qotgan qirlar
– Yodgorning qon nolasidan ko‘chgan sirlar.
Bu darada mudom doston unib turar.
Boychiborning kishnashiga to‘lib turar[5].

Lirik qahramonning o‘zi tug‘ilib o‘sgan joyiga mehr-muhabbati, tabiatiga shaydolik, unda kechirgan xotiralar, sog‘inch va armonlar hissi o‘quvchining qalbidan chuqur joy egallaydi. She’riyat shaydolarini maftun etgan she’rlaridan biri O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayevga bag‘ishlangan “Boysun haqida g‘amgin ballada yoki qaytmaydigan xotiralar haqida she’r”idir. Lirik qahramon xotira va yurakdagi sog‘inch orqali umrining ilk fasli bolaligi, yoshligi kechgan Boysun va lirik qahramon ruhiyatini tasvirlaydi.

Sen bor eding. Meni kuzatding.
– Bolam, singib ketma shaharga,
Yurak bilan ko‘ksing bezadim,
Eslab turgin olis safarda.
Tillarimda ertak bo‘lding sen:
“Bor ekan-da,
Yo‘q ekan.
Och ekan-da,
To‘q ekan.
Ko‘rdim,
Kezdim, Boysunday joy
Bu olamda yo‘q ekan”.
Hayron boqib do‘stu begona,
Xayolkash deb kuldilar ro‘yi rost.
– Boysun? Bunday joy yo‘q, devona,
U tushingga kiribdi, xolos.[6]

[1] Усмон Азим. Танланган асарлар 1 жилд. – Тошкент:Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйию 2016. – Б.331-332.
[2] Усмон Азим. Танланган асарлар 1 жилд. – Тошкент:Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйию 2016. – Б.341.
[3] Ko’rsatilgan asar, – Б.343.
[4] Ko’rsatilgan asar, – Б.345.
[5] Усмон Азим. Танланган асарлар V1 жилд. – Тошкент:Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2023. –Б.32
[6] Усмон Азим. Танланган асарлар 1 жилд. – Тошкент:Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйию 2016. – Б.318.

Ushbu she'rning bosh mavzusi – sog'inch, xotira, o'tgan yillarga qaytish imkonining yo'qligi, yillar armoni haqida. Lirik qahramonning tug'ilgan joyi, unda kechgan vaqtlar xotirasi, sog'inch va armonlari yurak-yuragidan alohida bir iztirob suratlarini gavdalantiradi: *"Men Boysunni izlayman hamon, / Ba'zan pinhon yig'layman she'rda. / Qayerlarga ketding, Boysunjon, / Bizning Boysun qani, qayerda?"* She'rda Boysunni – oddiy bir geografik nom sifatida ko'rmaymiz. She'rni o'qish davomida Boysunni sog'ingan lirik qahramon xotiralarida biz Boysunni – ideal makon, ruhiy vatan sifatida anglay boshlaymiz. Badiiy xronotopning ifodalanishiga ko'ra Boysun – "yo'q", xotira bilan makon o'rtasidagi bog'lanish ifodasi bilan birga faqat xotiralar va orzularda yashayotgan makon sifatida ko'rsatiladi, She'r joy va inson qalbi o'rtasidagi masofa, vaqt o'tishi hamda insonning uni ortga qaytarib bo'lmasligidan tug'ilgan iztirobning g'amgin akslanishidan iborat. She'r voqealanishi – "ketish" "yetish" "izlash" – "xotira" bosqichlarini o'zida mujassamlashtiradi. Biroq Boysun shovqinli shahardan farqli joy. "*Peshvoz chiqar mehr anqitib!"* Birgina ushbu satrda lirik qahramon qalbidagi sog'ichga javoban lirik makonning qadrli va suyukliligi o'ziga xos tarzda jonlanirilgan. "Peshvoz chiqish" – kutib olish, qarshisida paydo bo'lish kabi faoliyatni anglatuvchi fe'llar makonni jonlantirishga, "mehr anqitish" – metoforik tasviri esa – Vatan va inson qalbi o'rtasidagi uzilmas abadiy rishtani ifodalaydi. Mazkur she'rda xronotop, ya'ni makon va vaqt ifodasini osongina anglash qiyin. Nemis mutafakkiri Gegel yozadi: "Tabiat – umuman osmon bilan yer, shuningdek, inson ham birgina havo bo'shlig'ida umr kechirmaydi, balki o'zligini ariqlar, daryolar, tepaliklar, tog'lar, vohalar, o'rmonlar, daralardan iborat muayyan makon bag'rida his etadi va faoliyat ko'rsatadi"[1]. Aytish joizki, lirik qahramon his qilayotgan kechinmalar tabiat manzaralari va xotiralari ichida tasvirlanadi. Bir o'rinda shoir folklor motivlaridan bo'lgan tushni qo'llaydi. *"– Boysun? Bunday joy yo'q, devona, / U tushingga kiribdi, xolos".* Boysun timsoli orqali o'tgan davr, yo'qolgan vaqt, soddalik va samimiyat davri aks ettiriladi. Shuningdek, mazkur she'rda Boysun – shaxsning ichki dunyosi, ruhiyati ramzi, ota-ona, qon-qarindoshlik kabi azaliy va olis ildizlarning birligi, ularning kelib chiqishini ifodalagan metaforik obrazga aylanadi. Shoirning qator balladalari kabi mazkur she'rda ham dramatik xarakterga mansublik mavjud. She'rda ijodkor balladalariga xos dialogik nutqdan unumli foydalanilgan. Lirik qahramon va Boysun timsoli o'rtasida boshlangan dialog uning do'stu yorlari bilan davom ettiriladi. She'rda yaqqol ko'zga tashlangan asosiy xususiyat – xalq og'zaki ijodining eng qiziqarli syujetdan tarkib topgan ertaklar boshlanmasi mahorat bilan yozma adabiyotda qayta ishlangan va she'rga alohida joziba bag'ishlagan. "*Bor ekan-da, Yo'q ekan. Och ekan-da, To'q ekan. Ko'rdim, Kezdim, Boysunday joy Bu olamda yo'q ekan".* Folklordagi mazkur an'anaviylik lirik qahramonning o'z yurtining ertagudostonlarda bo'ladigan go'zal, afsonaviy va ajoyib bir yurt ekanini "Boysunday joy bu olamda yo'q", deya faxrlanish yoki bolalarcha soddalik bilan maqtanish tabiatini namoyon etadi. Ushbu bag'ishlov she'rdagi xarakterli jihatlardan biri, o'quvchiga Boysun timsoli – Shukur Xolmirzayev, Erkin A'zam va Usmon Azim kabi taniqli ijodkorlarning tug'ilgan yurti ekanini tanitibgina qolmay, umumiy ona Vatan tushunchasini kengroq anglatishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Usmon Azim ijodida lirik qahramon qalb kechinmalarini ifoda ettirishdagi asosiy motiv obraz sifatida Boysun muhim ahamiyat kasb etadi.

Rezyume: Ushbu maqolada Usmon Azim she'riyati Vatan mavzusi va joy nomi bilan bog'liq – Boysun timsolining motiv obraz sifatidagi o'rni ilmiy asosda tahlil qilingan.

Rezyume: This article scientifically analyzes the role of the image of Baysun as a motif in Osman Azim's poetry, which is related to the theme of the homeland and the place name.

Rezyume: В данной статье научно анализируется роль образа Байсуна как мотива в поэзии Усмана Азима, связанного с темой родины и топонима.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 10

[1] Гегель. Эстетика ёхуд санъат фалсафаси ёхуд бадиий ижод фалсафаси. 1-жилд. М.Абдуллаев таржимаси. Фарғона. 2011. – Б.208.